



XOTIN-QIZLARNING OILA VA JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA ULARNING HUQUQLARINI XIMOYA KILISH MUAMMOLARI

Abdunasirova Xalima Erdtillayevna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ayollarmizning oila va jamiyatda tutgan o'rni, shuningdek, o'zbek milliy qadriyatlari va demokratik jamiyatda ayollarga bo'lgan munosabatlar mavjud qonunlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Erkin shaxs, oila-nikoh munosabatlari, Konstitutsiya, oila, jamiyat, zo'ravonlik, nikoh, inson huquqlari, urf-odat.

Аннотация: В статье анализируется роль женщин в семье и обществе, а также национальные ценности и отношение к женщинам в демократическом обществе, основанное на действующих законах.

Ключевые слова: свободный человек, семейно-брачные отношения, конституция, семья, общество, насилие, брак, права человека, обычаи.

Annotation: The article analyzes the role of women in the family and society, as well as national values and attitudes towards women in a democratic society based on existing laws

Keywords: free person, family-marital relations, constitution, family, society, violence, marriage, human rights, customs.

Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga, munosabati bilan belgilanadi. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev onalik va bolalikni himoyalash, oila institutini qo‘llab-quvvatlash, ayollarning og‘irini yengil qilish, ularning jamiyat hayotidagi nufuzini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirish darkor”[1]- deya alohida qayd etganliklari bejiz emasdir. Istiqlol yillarida xotin-qizlarning oila, jamiyat va davlat qurilishidagi o‘rni va rolini oshirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy manfaatlarini himoya qilish ustivor vazifaga aylandi. Shuni alohida aytish mumkinki, istiqloлга erishilgandan so‘ng, ayollarimiz mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etish imkoniga ega bo‘ldilar. Ular davlat va boshqaruv idoralari, vakillik organlarida, ishlab chiqarish, tadbirkorlik va fermerlik tarmoqlarida, ijtimoiy sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqdalar. “Hozirgi vaqtda mamlakatimiz xotin-qizlari orasida 514 nafar fan doktori, 6 nafar akademik, 15 nafar O‘zbekiston Qahramoni, 17 nafar senator, 15 nafar Qonunchilik palatasi deputati borligini, shuningdek, mahalliy kengashlar deputatlarining 23 foizidan ziyodini aynan ayollarimiz tashkil etishini alohida ta’kidlash lozim.”[2]

Ayollar huquqlarini buzilishi bilan bog‘liq huquqbuzarliklarga birinchi navbatda ularga nisbatan sodir etiladigan zo‘ravonlik kiradi. Zo‘ravonlik - bu insonga jismoniy, ruhiy ta’sir qilish shaxsning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy daxlsizligiga va erkinligiga taxdid solishdir. Ayollarga nisbatan o‘tkazilgan har qanday zo‘ravonlik–har qanday jinsiy belgiga asoslangan tazyiq, ayol salomatligiga jismoniy, jinsiy yoki ruhiy putur yetkazadigan, yoki unga azob-uqubat, iztiroblar chekishga olib keladigan, shuningdek shaxsni yoki jamoa erkinligidan maxrum kilingan yoki maxkum etilgan harakatlarini sodir etilishi tushuniladi. Demak ayollarga yetkaziladigan zo‘ravonlik quyida keltirilgan xodisalarga muvofiq keladi, ammo ular bilan cheklanib qolmaydi: oilada o‘rin tutadigan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo‘ravonliklar, jumladan kaltaklash, ayollarga ziyon keltiradigan turli hil operatsiyalar va boshqa turdagi hayot amaliyotida kuzatiladigan an’anaviy xodisalar, shuningdek nikohdan tashqari bo‘lgan zo‘ravonlik va ayollarni nomus-nafsoniyatiga zo‘ravonlik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan tazyiqlar;

- jamiyatda alohida o‘rin tutgan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo‘ravonlik, jumladan zo‘rlab nomusga tegish, jinsiy aloqaga majburlash, va ish joylarida, o‘quv yurtlarida va x.k joylarda ayollarga nisbatan kuzatiladigan tovlamachilik, qo‘rqitishlar, ularni kamsitish, ayollarni fohishalik qilish uchun sotish xamda fohishabozlikka majbur qilish;

- ayollarga nisbatan qo‘llanilgan jismoniy, jinsiy va ruhiy zo‘rliklar qayerda sodir etilayotganidan qat’iy nazar, davlat tarafidanmi yoki davlatning layoqatsizligidanmi baribir ayollarni kamsitilishiga kiradi. [3]. Oila – nikox masalalari. Odat bo‘yicha tanishish sovchilar orqali amalga oshirilgani ma’qul. Ota-onalarning roziligidan so‘ng qizlar ko‘p hollarda uchrashuvga chiqadidar, undan keyin esa ular yoki ota-onalarning tanlovini tasdiqlashlari yoki rad etishlari lozim. Ko‘pchilik xollarda ota-onaning tanlovi hal qiluvchi bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, ayollar turmushga chiqishda qaror qabul qilish uchun shaxsiy erkinlikka ega emas. Ular uchun juda muhim hayotiy voqeaning asosi ota-onaning xohishi, ota-

onaning tanlovi, deb xisoblaydilar. Ayollar ixtiyoriy ravishda turmush qurishdagi tanlash huquqlarini ota-onalar zimmasiga yuklaydilar.

An'anaviy ko'rsatmalar qizga turmushga chiqish yoki chiqmaslik xohishlarini namoyon qilish imkonini bermaydi. Bu jamiyat tomonidan qiz zimmasiga yuklatilgan majburiyatdir va u bu majburiyatni burch sifatida o'z xohishi, his-tuyg'usi va irodasiga qarshi ravishda bajarishi lozim. Ayollarning oiladagi bunday axvol esa Oila kodeksiga ziddir.[4]

Oilada tazyiqlardan holi bo'lish huquqi. Oilada ayollarga nisbatan tazyiqning turli shakllarda bo'lishi mumkin. Tazyiq oilalarda, ularning ijtimoiy maqomiga bog'liq bo'lmagan xolda yuz berishi mumkin. Tazyiq jinoyatning shunday turlariga kiradiki, ular haqidagi xabar huquqni himoya qilish organlariga kamdan-kam yetib boradi, chunki jabrlanuvchilar ko'p xolatlarda shikoyat kilmaydilar.

Mutasaddi mutaxassislar ayollarni urish, kaltaklash, azoblashni- ijtimoiy muammo deb xisoblamaydilar, chunki ular kishilarga, bolalikdan odat tusiga kirgan, gender stereotiplari zahirida yotadi deb uylamaydilar. Hech bir inson, ayniqsa ayol tazyiqqa loyiq emas, biroq amalda jabrlanuvchi o'zini qanday tutganligidan qat'iy nazar, ozor beruvchi har doim xam o'z harakatlariga vaj topadi, o'zini oqlashga harakat qiladi. Ayollarga ozor beruvchi eridan ketib qolishiga xalakit beradigan ko'pgina sabablar bor: sir uydin chiqmasligini xohlash, begonalarga yuz bergan xodisani aytishga uyalish, iqtisodiy tomondan bog'liklik, ketadigan joyining yo'qligi, bolalarini otasiz koldirishni istamaslik, eski urf-odatlar-«odamlar nima deyishadi» va xokazo-ko'pgina sabablar

Oilada ayol va erkakning teng huquqliligi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinlikka ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chikishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Imtiyozlar fakat qonun bilan belgilab qo'yiladi, xamda ijtimoiy adolat prinsplariga mos bo'lishi kerak.[5]

Oilada ayollar katta mas'uliyat yuklangan. Ayollar ham jamiyat hayotida og'ir mehnat yoki tijorat sohasida erkaklar bilan bab-barobar ishtirok etishlari gohida ularning oila oldidagi mas'uliyatini zaiflashtirib qo'ymoqda. Bunday qiyinchiliklarga bardosh bera olmagan ba'zi bir ayollar yengil-yelpi hayot kechirish yo'liga kirib ketmoqdalar.

Fikrimizcha, xotin-qizlarning oila va jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini oshirishda:

- * milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida yosh oilalar ma'naviyatini yuksaltirish;
- * oila ma'naviyatiga ayol ma'naviyati so'zsiz yetakchi o'rin tutadi. Shu boiz, oilada ayol ma'naviyatini yuksaltirish;
- * xotin-qizlarning tibbiy, huquqiy, jismoniy va ma'naviy madaniyatini oshirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarali va maqbul usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish;
- * oilaviy hayotga nisbatan xotin-qizlarda ma'suliyat hissini kuchaytirish;
- * oilada, jamiyatda ayollarga bepisand qarash, erta turmushga berishkabi noma'qul illatlarni bartaraf etib, ularning mehnatini munosib baholash va rahbatlantirish tizimini joriy etish;

*ayollarni kuproq tadbirkorlikka jalb etish, oilaviy tadbirkorlik va kasanachilikni yanada rivojlantirish;

*oilada qizlarning salomatligini asrash, ularning zamonaviy bilim va kasb-hunarlar egasi bo'lib voyaga yetishi, jamiyatda o'z munosib o'rnini topishi uchun ota-ona mas'uliyatini oshirish;

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Qiz bola-bo'lg'usi oila bekasi, kelajagimiz egasidir. Bugun biz ularga qanday ta'lim-tarbiya bersak, ertaga ular yangi avlodimizga shunday tarbiya beradi"[5]

Xulosa qilib aytsak, ayollar oilada g'oyatda muxim o'rin tutadilar. Ular jamiyatning rivojlanishi va oilaning farovonligini ta'minlashda o'zlarining katta xissalarini qo'shadilar. Bolalar tarbiyasi majburiyati ota-onalar, ayollar va erkaklar xamda butun jamiyatda o'zaro taqsimlashni talab qiladi. Ayollar hayotning va rivojlanishning barcha jabhalarida erkaklar bilan teng huquqli sherik bo'lishlari uchun, ilk yoshdan qizlarni qadrlash va inson shaxsining qadr-qimmatini huquqini e'tirof etish, xamda o'zlarining asosiy erkinliklarini, jumladan inson huquqlarini to'liq xolda o'zlashtirishlarini ta'minlash zarur.

Adabiyotlar

1.Shavkat Mirziyoyev: Miliy taraqqiyot yo'limizni qa'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz –T.: -"O'zbekiston"- 2018 yil b-346.

2.Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: - "O'zbekiston", 2018 y-B-342-343.

3. IV Ayollar xolati buyicha Jaxon Konferensiyasi Harakatlar dasturi, 113-bandi

4. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 3 bob, 2 qism, 14-modda.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi.